

**AVTOMOBILLARGA KO'P QAVATLI ZAMONAVIY TURARJOY
LOYIHALASH**

Xursanov Asilbek Odiljon o`g`li

*Andijon mashinasozlik instituti Andijon shahar, O'zbekiston "Transport va logistika"
fakulteti "Transport vositalari muhandisligi" yo'nalishi 4-kurs talabasi.*

N.A.Ikromov

Ilmiy raxbar dotsent

KIRISH

Avtotransport vositalarini joylashtirish ularning qanday ishlarga mo`ljallanganligi va turlari, ekspluatatsiya sharoiti, ishga chiqish va kirish tartibi hamda almashinuvlar oralig`ida servis va ta'mir o`tkazish vaqtlariga mos kelishi zarur. Bulardan tashqari saqlashni tashkil etishda harakat xavfsizligini ta'minlash, yengil manevrlar bajarish, maydondan tejamli foydalanish va sarflanadigan sarmoyaning samaradorligiga erishishni ta'minlash kabilar ham ko`zda tutiladi.

Avtotransport vositalarini saqlashda uning tashqi o`lchamlari katta ahamiyatga ega. Shuning uchun SNiP 21-02-99 raqamli qurilish me'yoriy hujjatida avtotransport vositalari besh toifaga bo`linadi (1.1-jadval) va shu asosda avtomobillar harakat tarkibini joylashtirishda geometrik o`lchamlar me'yoriy ko`rsatkichlar sifatida belgilab beriladi.

1.1-jadval.

Har xil turkumdagi avtomobillarning o`lchamlari.

| Avtomobil turkumlari | Avtomobil uzunligi |
|----------------------|------------------------|
| I | 5,0 gacha |
| II | 6,0-7,5 |
| III | 8,0-9,5 |
| IV | 10,5-12 |
| V | 16,5 va undan tashqari |

Avtomobillarni binolarda saqlaganda ular bilan bino konstruksiyalari orasidagi masofalar 1.2-jadvalda keltirilgan.

1.2-jadval.

Avtomobillar va bino konstruksiyalari oralig`idagi masofalar.

| Masofa, m | Avtomobil turkumi | | |
|--|-------------------|------------|------------|
| | I | II | III-IV |
| Avtomobilning bo`ylama tomonlari oralig`i; devor va avtomobil bo`ylama tomoni oralig`i. | 0,5 | 0,6 | 0,8 |
| Avtomobilning bo`ylama tomoni va ustun oralig`i. | 0,3 | 0,4 | 0,5 |
| Avtomobilning old tomoni va devor yoki darvoza oralig`i: - to`g`ri burchakli joylashtirishda. - o`tkir burchakli joylashtirishda. | 0,7 0,5 | 0,7 0,5 | 0,7 0,5 |
| Avtomobilning orqa tomoni va devor yoki darvoza oralig`i: - to`g`ri burchakli joylashtirishda. - o`tkir burchakli joylashtirishda. | 0,5 0,4 | 0,5 0,4 | 0,5 0,4 |
| Avtomobilning old va orqa tomonlari oralig`i. | 0,4 | 0,5 | 0,6 |

Izoh: 1. Agar devor va ustun yoniga (avtomobil balandligigacha bo`lgan masofa) isitish asboblari, shamollatish qurilmalari yoki boshqa jihozlar o`rnatilgan bo`lsa, oraliq masofa ushbu jihozgacha olinadi.

1. Avtomobillarni joylashtirayotganda haydovchi kirishi va chiqishi uchun kabina eshigining ochilishini hisobga olish zarur.


2. Binoda avtomobilning harakati to`g`ri chiziqli va mexanizmlar yordamida amalga oshirilsa, jadvalda ko`rsatilgan masofalarni ikki marta kamaytirishga ruxsat etiladi.

3. Avtomobillar ochiq va shiyponli maydonlarda saqlanganda masofalar avtomobillar uchun 0,1 metrga, avtopoezdlar uchun 0,2 metrga oshiriladi.

4. Agar ikki va undan ko`p avtomobil bir darvozadan chiqadigan bo`lsa, avtomobil va darvoza oralig`idagi masofa avtomobillar bir-biriga xalaqit bermasdan o`tadigan darajada qabul qilinadi.

Avtomobillarni saqlash joylarida joylashtirish usullari avtomobilni joyga kiritish va chiqarish, avtomobil qatorlari soni, ichki yurish yo`lining mavjudligi, qatorlarning yurish yo`liga nisbatan joylashishi va avtomobilning ichki yoki tashqi yurish yo`li o`qiga nisbatan o`rnatilishiga qarab guruhlanadi (2.1-rasm).

Avtomobillar saqlash joyiga kirib-chiqish bo`yicha boshi berk va to`g`ri oqimliga bo`linadi. Birinchi usulda avtomobil joyga old tomoni bilan kirib, orqaga yurib chiqib ketadi yoki teskarisi (2.1-rasm a). Ikkinchi usulda avtomobilning saqlash joyiga kirishi va chiqishi faqat oldinga yurib amalga oshiriladi (b). Binolarda boshi berk holda joylashtirishda sosan avtomobil orqaga yurgizib kiritiladi, chunki bunda maydon tejaladi va tez chiqib ketish ta`minlanadi.



2.1-rasm. Ikki tomonli joylashtirish usullari.

Agar avtomobillar ochiq maydonlarda boshi berk usulda joylashtirilsa va isitish qurilmalariga ulanadigan bo`lsa, unda old tomon bilan kiritiladi.

To`g`ri oqimli joylashtirishning boshi berkka qaraganda afzalligi mavjud, ya`ni bunda orqaga yurish zaruriyati yo`qoladi. Bu usul tashqi o`lchamlari katta avtomobilni hamda avtopoezdlarni joylashtirishda qo`l keladi.

Avtomobillar binoda saqlanganda yurish yo`li bino ichida yoki bino tashqarisida rejalashtirilishi mumkin. Ichki yurish yo`li avtomobil joyiga borish, burilib kirish va joyidan chiqib ketish uchun xizmat qiladi. Ichki yurish yo`lisiz, ya`ni to`g`ridan-to`g`ri kirish va

chiqish usulida bino maydoni tejaladi. Lekin har bir avtomobil joyi uchun darvoza qurish zaruriyati tug`iladi. SHuning uchun juda sovuq iqlim sharoitida bunday usulni qo`llash maqsadga muvofiq emas.

ADABIYOTLAR:

1. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmog`i korxonalarini loyihalash. Ikkinchi qayta ishlangan va to`ldirilgan nashri - T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. - 320 b.
2. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmog`i korxonalarini loyihalash -T.: FAN, 2006. -232 6.
3. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmog`i korxonalarini loyihalash - T.: Voris-nashriyot, 2006. - 259 b.
4. Напольский Г.М. Технологическое проектирование автотранспортных предприятий и станций технического обслуживания.- М.:Транспорт, 1993 -272с.
5. Napolskiy G.M., Pugin A.V. Avtotransport korxonalarini qayta qurish va texnik qayta jihozlash. O`quv qo`llanma. (Musajonov M.Z., Mo`minjonov N.M. tarjimas). - T.: TAYI, 2004 - 87 b.